



THE NECESSARY AND EXISTENCE IN IBN SINA'S TEACHING: ONTOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN GOD AND HUMAN

Abdurashid Tukhtashevich Yakhshilikov

Independent Researcher

abdurashid26061984@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ibn Sina, God, human being, existence, Necessary Existent (Wājib al-Wujūd), Possible Existent (Mumkin al-Wujūd), necessity, possibility, causality, ontology, metaphysics, anthropology, theology, soul (nafs), philosophical methodology.

Received: 05.04.26

Accepted: 06.04.26

Published: 07.04.26

Abstract: This article aims to clarify Ibn Sina's concepts of God and the human being and to analyze their philosophical foundations. To accomplish this task, reference is made to the thinker's reflections on this issue, particularly his metaphysical and anthropological doctrines. Ibn Sina's philosophy is characterized by a distinctive methodological system in which the problem of existence is interpreted within a coherent theoretical framework.

The philosopher explains being — that is, all existing things, their origin, structure, interrelations, and transition from one state to another — through the principles of necessity (wājib), possibility (mumkin), actuality, and causality. These categories occupy a central place in his ontology and serve as the methodological basis for understanding the relationship between God and the human being.

Ibn Sina elaborated on these questions in a number of his works, including *Ash-Shifo*, *An-Najot*, *Al-Ishorat va al-Tanbihat*, *Hayy ibn Yaqzon*, and *Ahval an-Nafs*. In these writings, the essence of God as the Necessary Existent (Wājib al-Wujūd) and the status of the human being as the Possible Existent (Mumkin al-Wujūd) are examined on scientific and philosophical grounds.

IBN SINO TA'LIMOTIDA ZARURIY VA BORLIQ: OLLOH VA INSON MUNOSABATINING ONTOLOGIK ASOSLARI

Abdurashid Tuxtashevich Yaxshilikov

Mustaqil izlanuvchi

abdurashid26061984@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ibn Sino, Olloh, inson, borliq, vojib ul-vujud, mumkin ul-vujud, zaruriyat, imkoniyat, sababiyat, ontologiya, metafizika, antropologiya, ilohiyot, ruh (nafs), falsafiy metodologiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ibn Sinoning Olloh va inson haqidagi qarashlarini aniqlashtirish hamda ularning falsafiy asoslarini tahlil etish ko'zda tutiladi. Ushbu vazifani bajarish uchun mutafakkirning mazkur masalaga doir mulohazalariga, ayniqsa, uning metafizik va antropologik konsepsiyalariga murojaat etiladi. Zero, Ibn Sino falsafasi o'ziga xos metodologik tizimga ega bo'lib, unda mavjudlik masalasi yaxlit nazariy asosda sharhlanadi.

Alloma borliqni ya'ni barcha mavjud narsalar, ularning paydo bo'lishi, tuzilishi, o'zaro aloqadorligi va bir holatdan boshqasiga o'tishini — zaruriyat (vojib), imkoniyat (mumkin), voqelik va sababiyat tamoyillari orqali izohlaydi. Aynan shu kategoriyalar uning ontologik qarashlarida markaziy o'rin tutadi hamda Olloh va inson o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Ibn Sino mazkur masalalarni bir qator asarlarida atroflicha bayon etgan. Jumladan, Ash-Shifo, An-Najot, Al-Ishorat va al-Tanbihat, Hayy ibn Yaqzon hamda Ahval an-Nafs kabi asarlarida Ollohning vojib ul-vujud sifatidagi mohiyati va insonning mumkin ul-vujud sifatidagi maqomi ilmiy-falsafiy asosda tahlil qilinadi.

НЕОБХОДИМОЕ И СУЩЕЕ В УЧЕНИИ ИБН СИНЫ: ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОТНОШЕНИЙ БОГА И ЧЕЛОВЕКА

Абдурашид Тухташевич Яхшиликков

Независимый исследователь

abdurashid26061984@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ибн Сино, Бог, человек, бытие, Необходимо Сущее (Ваджиб аль-Вуджуд), Возможное Сущее (Мумкин аль-Вуджуд), необходимость, возможность, причинность, онтология, метафизика, антропология, теология, душа (нафс), философская методология.

Аннотация: В данной статье ставится задача уточнить взгляды Ибн Сины на понятия Бога и человека, а также проанализировать их философские основания. Для достижения этой цели рассматриваются размышления мыслителя по данной проблематике, прежде всего его

метафизические и антропологические концепции. Философия Ибн Сины отличается своеобразной методологической системой, в рамках которой проблема бытия интерпретируется как целостная теоретическая конструкция.

Философ объясняет бытие то есть все существующие вещи, их происхождение, структуру, взаимосвязи и переход из одного состояния в другое через принципы необходимости (ваджиб), возможности (мумкин), действительности и причинности. Эти категории занимают центральное место в его онтологии и служат методологической основой для понимания взаимоотношения Бога и человека.

Данные вопросы Ибн Сина подробно раскрывает в ряде своих трудов, среди которых Аш-Шифо, Ан-Нажот, Ал-Ишорат ва ал-Танбихат, Хайй ибн Яқзон и Аҳвал ан-Нафс. В этих произведениях сущность Бога как Необходимо Сущего (Ваджиб аль-Вуджуд) и статус человека как Возможного Сущего (Мумкин аль-Вуджуд) анализируются на научно-философской основе.

Kirish. Mazkur tadqiqotda Ibn Sinoning Olloh va inson haqidagi tasavvurlari izchil tahlil qilinib, ularning nazariy asoslari aniqlashtiriladi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun mutafakkirning ayni masalaga doir metafizik hamda antropologik qarashlari o'rganiladi. Chunki Ibn Sino ta'limoti mustaqil va mukammal metodologik tizimga ega bo'lib, unda borliq masalasi yaxlit konseptual doirada talqin etiladi.

Alloma mavjudotni ya'ni barcha bor narsalar, ularning kelib chiqishi, ichki tuzilishi, o'zaro bog'liqligi va bir holatdan boshqasiga o'tish jarayonini zaruriyat, imkoniyat, voqelik hamda sababiyat tamoyillari orqali asoslaydi. Ushbu kategoriyalar uning ontologik qarashlarida tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'lib, Olloh va inson o'rtasidagi munosabatni anglashda nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Ibn Sino mazkur muammolarni qator asarlarida keng yoritgan. Xususan, Ash-Shifo, An-Najot, Al-Ishorat va al-Tanbihat, Hayy ibn Yaqzon hamda Ahval an-Nafs kabi manbalarda Ollohning vojib ul-vujud sifatidagi mohiyati va insonning mumkin ul-vujud maqomi ilmiy-mantiqiy dalillar asosida sharhlanadi.

Mazkur maqolada ana shu manbalarga tayangan holda, mutafakkirning Oloh va inson haqidagi qarashlari qanday mantiqiy asos va dalillarga suyanib shakllangani tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson mohiyati masalasi sharq va g'arb tafakkurida turli yo'nalishlarda talqin qilingan bo'lsa-da, Ibn Sino ta'limotida u markaziy o'rinni egallaydi. Tadqiqotchilar insonni bir tomondan aqliy mavjudot, ikkinchi tomondan ruhiy-ma'naviy borliq sifatida talqin etadilar. Ruhiy jihatning namoyon bo'lishi insonni tabiiy-instinktiv ehtiyojlar darajasidan yuqoriga ko'tarib, uni hayvoniy mavjudotdan farqlovchi ontologik maqomga olib chiqadi.

Ibn Sino metafizikasida borliq g'oyasi inson ongida ravshan tushuncha sifatida mavjud ekani alohida ta'kidlanadi. Uning fikricha, "borliq", "narsa" va "zaruriyat" kabi kategoriyalar aqlning asosiy va bevosita idrok etiladigan tushunchalaridir. Bu qarashlar, ayniqsa, Ash-Shifo va An-Najot asarlarida tizimli ravishda bayon etilgan. Shuningdek, Al-Ishorat va al-Tanbihatda "tanbih" (aqlni uyg'otuvchi ishora) tushunchasi orqali o'z-o'zidan ravshan bo'lgan metafizik g'oyalarning mohiyati ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, Ibn Sino antik yunon merosini, xususan Platon va Aristotel qarashlarini chuqur o'zlashtirgan holda, ularni islomiy kalom va tasavvuf tafakkuri bilan uyg'unlashtirgan. U Aristotelning "De Anima" asariga sharh yozib, nafs haqidagi ta'limotni yanada tizimlashtirgan. Mutazila va ash'ariy kalom maktablarida nafsning moddiy javhar sifatida talqin qilinishiga qarshi ravishda, Ibn Sino nafsni harakatga keltiruvchi, ma'naviy substansiya sifatida asoslaydi. Bu yondashuv Ahval an-Nafs hamda boshqa risolalarda batafsil tahlil etilgan.

Shuningdek, Hayy ibn Yaqzon asarida insonning ichki kamolot yo'li, fenomenal va metafizik olam o'rtasidagi bog'liqlik hamda shaxsiyatning shakllanish jarayoni badiiy-falsafiy uslubda yoritilgan. Tadqiqotchilar mazkur asarni insonning o'zligini anglash va ilohiy haqiqatga yetish jarayonini ifodalovchi konseptual model sifatida baholaydilar.

Mazkur tadqiqotda tarixiy-falsafiy yondashuv, qiyosiy tahlil hamda konseptual-analitik metodlardan foydalanildi. Avvalo, Ibn Sinoning asosiy asarlarida bayon etilgan ontologik va antropologik g'oyalar matnshunoslik asosida o'rganildi. Borliq, zaruriyat, imkoniyat, nafs va aql tushunchalari kategoriyaviy tahlil qilinib, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligi aniqlashtirildi.

Qiyosiy metod asosida Ibn Sinoning qarashlari antik yunon falsafasi va kalom ilmi bilan solishtirildi. Bu jarayonda uning nafs haqidagi talqini Aristotel va kalom mutakallimlarining yondashuvlaridan farqli jihatlari bilan ochib berildi. Shuningdek, inson aqlining bilish jarayonidagi bosqichlari hissiy idrok, tasavvur, tajrid va universal tushunchaga ko'tarilish mexanizmi izchil tahlil etildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot Ibn Sinoning o‘z konsepsiyasiga tayandi: ya’ni, aqlning “bilquvva” holatdan “bilfi‘l” holatga o‘tishi orqali metafizik bilimga erishish imkoniyati mavjudligi asos sifatida qabul qilindi. Insonning metafizikani anglash qobiliyati uning ontologik tuzilmasida mavjud potensial imkoniyat sifatida talqin qilindi.

Tahlil va natijalar. Tahlil jarayonida Ibn Sinoning ilohiyotga doir qarashlari ko‘p qatlamli va izchil konseptual tizimga ega ekani aniqlandi. U Ollohni “vujudi vojib”, “al-Avval”, “al-Vohid”, “al-Il-lat ul-ula”, “sof Aql” kabi nomlar bilan ifodalaydi. Ushbu atamalar bir butun nazariy tuzilmani tashkil etib, zaruriy borliqning mohiyat va mavjudlik jihatidan birligi, sababga muhtoj emasligi, oddiy (murakkab emas) ekani va mutlaq birlik sifatini anglatadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu prinsiplardan birortasining inkori butun metafizik tizimni izdan chiqaradi.

Ibn Sino dalillash usulida harakat va sababiyat argumentlaridan foydalansa-da, uning eng muhim nazariy yutug‘i “zaruriy borliq” dalilidir. Zaruriy borliq mohiyati bilan mavjudligi aynan bir bo‘lgan yagona haqiqat sifatida talqin qilinadi; mumkin borliqlar esa mavjudlikni undan oladi. Shu asosda Olloh va olam o‘rtasidagi munosabat uch jihatda izohlanadi: zaruriyat–imkon, mustaqillik–qaramlik va taqaddum–ta’axxur. Natijada Olloh ontologik jihatdan mutlaq mustaqil, olam esa ontologik jihatdan mumkin va sababga bog‘liq mavjudlik sifatida talqin qilinadi.

Qiyosiy tahlil antik yunon va o‘rta asr xristian tafakkuri bilan muayyan o‘xshashlik va farqlarni aniqladi. Aristotelda birinchi sabab g‘oyasi mavjud bo‘lsa-da, Ibn Sino mavjudlik va mohiyat farqlanishi orqali uni yangi ontologik asosga ko‘chiradi. Platonning “Demiurg” konsepsiyasidan farqli ravishda, Ibn Sino nazariyasida yaratuvchilik mexanik yoki tashqi shakl berish jarayoni emas, balki zaruriy borliqning o‘zini bilishi bilan bog‘liq ontologik aktdir. Shuningdek, u yangi platonchilarning emanatsiya modelini tanqid qilib, ilohiy iroda va ilohiy bilimni mexanik zaruriyatdan ajratadi.

Tahlil davomida Ibn Sinoning panteizmga nisbat berilishi masalasi ham ko‘rib chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uning qarashlari ontologik birlikni emas, balki ontologik tafovutni asoslaydi. Zaruriy borliq va mumkin borliq o‘rtasida mohiyaviy tafovut mavjud. Ollohning mavjudligi uning mohiyatiga aynan teng bo‘lsa, boshqa mavjudotlarda mavjudlik qo‘shimcha sifatdir. Shu bois, ularni bir butun substansiya sifatida talqin qilish Ibn Sino tizimiga zid.

Ilohiy bilim masalasida ham muhim natijalarga erishildi. Ibn Sinoga ko‘ra, Olloh barcha narsani universal tarzda, zamondan tashqari holda biladi. Yakka va o‘zgaruvchan voqealar uning bilimida o‘zgarish yasamaydi. Bu yondashuv ilohiy ilmni zamoniylar jarayonlardan mustaqil holda tushuntiradi va qadar masalasida muvozanatli pozitsiyani shakllantiradi.

Xulosa. Tadqiqot yakunlari shuni ko‘rsatadiki, Ibn Sinoning Olloh va borliq haqidagi ta’limoti mukammal ontologik tizim sifatida shakllangan bo‘lib, unda zaruriylik va imkoniyat

kategoriyalari markaziy metodologik mezon vazifasini bajaradi. U zaruriy borliqni mohiyati bilan mavjudligi aynan bir bo'lgan yagona haqiqat sifatida asoslaydi va boshqa barcha mavjudotlarni ontologik jihatdan unga bog'liq, mumkin borliqlar sifatida talqin qiladi. Shu orqali Olloh va olam o'rtasidagi munosabat sababiyat, zaruriyat va ierarxik tartib tamoyillari asosida izohlanadi.

Xulosaviy tahlil Ibn Sino metafizikasida mohiyat va mavjudlik farqlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Aynan shu farqlash orqali u zaruriy va mumkin borliq o'rtasidagi ontologik tafovutni asoslaydi hamda ilohiy birlikni panteistik talqindan qat'iy ajratadi. Zaruriy borliq mutlaq mustaqil, oddiy va yagona; mumkin borliq esa mavjudlikni tashqi sabab orqali oluvchi, tarkibli va cheklangan hodisadir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Ibn Sinoning ilohiy bilim haqidagi qarashlari zamon va makon chegaralaridan xoli universal bilish konsepsiyasiga tayanganini ko'rsatdi. Ollohning bilishi o'zgaruvchan voqelikdan mustaqil bo'lib, u barcha narsani umumiy va zaruriy qonuniyatlar darajasida qamrab oladi. Bu yondashuv qadar va erkin iroda masalalarini metafizik asosda muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Ibn Sino ta'limoti antik falsafa merosi va islomiy ilohiyot o'rtasida konseptual ko'prik vazifasini bajaradi. U borliqni izchil mantiqiy asosda tushuntiruvchi, ichki yaxlitlikka ega bo'lgan nazariy tizimni yaratgan. Mazkur tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, Ibn Sinoning Olloh haqidagi qarashlari nafaqat o'rta asr islom falsafasi doirasida, balki umumjahon metafizik tafakkuri rivojida ham muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Sino. Ash-Shifo. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
2. Ibn Sino. An-Najot. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.
3. Ibn Sino. Al-Ishorat va at-Tanbihat. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.
4. Ibn Sino. Ahvol un-nafs (Ruh holatlari haqida risola). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Aristotel. Jon haqida (De Anima). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012.
6. Platon. Timey (Demiurg haqidagi dialog). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.
7. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and. – 2025.

8. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.

9. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. Влияние цифровой культуры на неприкосновенность жизни человека в обществе //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.

10. Усмонов Ф. Н. Эпистемологическая эволюция рационализма //Наука и современность. – 2012. – №. 19-1. – С. 194-198.

11. Тавмурадов Ж. Абдулқодир бедилнинг ҳаёт йўли: фалсафа ва адабий мерос //scienceproblems. UZ Учредители: ООО “Scienceproblems team”. – 2025. – Т. 4. – С. 10.

12. Tursunova O. Alisher Navoiy merosida yuridik aktlarga oid huquqiy terminlar //oriental universiteti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. – 2024. – С. 298.